

ANTI-K DAVR VA ISLUM FALSAFASI O'RTASIDAGI INTELEKTUAL UZVIYLIK

Muxammadjonov Azamatbek Qosimjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi
birinchi bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Sulaymonova Sh.N.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va germeneytika kafedrasi o'qituvchisi,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada antik davr va islom falsafasi o'rtasidagi intellektual uzviylik masalalari yoritiladi. Shuningdek, qadimgi yunon faylasuflari hisoblangan Suqrot, Aflotun (Platon) va Arastu (Aristotel) qarashlari va uning musulmon falsafiy tafakkuriga ta'sirini tadqiq etadi. Tadqiqotda tarixiy, falsafiy va komparativistik (qiyosiy) tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, islom falsafasi mutafakkirlari tomonidan Antik davr ma'naviy merosini qabul qilishi, o'zlashtirishi va tarixiy-madaniy maydonda rivojlantirilishi masalalari o'rganiladi. Ushbu ilmiy ish natijasida Antik davr va islom falsafasi o'rtasidagi o'zaro ilmiy va g'oyaviy aloqadorlik mavjudligi asoslab beriladi. Mazkur muammo falsafiy tafakkur rivojida G'arb va Sharqning falsafiy an'analarning uzviy aloqadorligini chuqurroq anglashda muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi.

***Kalit so'zlar:** Antik davr, ijtimoiy falsafa, axloq, adolat, jamiyat, davlat, aql, erkinlik, falsafiy g'oyalar, qadimgi yunon, qadimgi Rim.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Inson tafakkuri taraqqiyotida falsafa alohida o'rin tutib, turli tarixiy bosqichlarda shakllangan g'oyalar o'zaro uzviy bog'liqlik asosida rivojlanib borgan. Xususan, antik davr falsafasi va islom falsafasi o'rtasidagi intellektual uzviylik masalasi jahon falsafa tarixida muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Umumiy olganda, Antik davr falsafiy tafakkuri deganda biz eramizdan avvalgi IX-I asrlar oralig'ida vujudga kelgan qadimiy Yunoniston va Rim tamaddunini tushunamiz. Antik davr falsafasi inson tafakkurining ilk uyg'onish bosqichini ifodalab, inson, jamiyat va borliq o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari markaziy o'rinni egallaydi. Bu davr falsafiy tafakkuri bu kabi dastlabki nazariy qarashlarni tizimlashtirgan bo'lsa, islom

falsafasi ushbu merosni o‘zlashtirib, uni yangi diniy-ma’naviy asosda rivojlantirdi. Mazkur uzviylik faqat g‘oyaviy o‘xshashlik bilangina cheklanmay, balki metodologik yondashuv, mantiqiy tafakkur va axloqiy qarashlar tizimida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Islom falsafasi vakillari antik falsafani tanqidiy o‘zlashtirib, uni Qur‘on va hadis ta‘limotlari bilan uyg‘unlashtirishga intildilar. Natijada, falsafaning yangi — sintezlashgan shakli yuzaga keldi, bu esa keyingi Yevropa Uyg‘onish davri falsafasiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Shu jihatdan, antik davr va islom falsafasi o‘rtasidagi intellektual uzviylikni o‘rganish nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ilmiy tafakkur rivojini anglashda ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi — antik va islom falsafasi o‘rtasidagi g‘oyaviy meros, ularning o‘zaro ta‘siri va uzviy rivojlanish jarayonini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qadimgi davr va islom falsafasi o‘rtasidagi intellektual uzviylik masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu muammo, avvalo, antik falsafaning asosiy g‘oyalari va ularning musulmon Sharqidagi qabul qilinishi hamda qayta talqin etilishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Antik falsafaning nazariy asoslari Suqrot, Platon va Arastu asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Arastuning mantiq, metafizika va axloqiy ta‘limotlari keyingi davr falsafiy tafakkuriga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan.

Islom falsafasi tarixini tizimli yoritishda Majid Faxriyning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. U o‘zining “Islom falsafasi tarixi” asarida antik ma’naviy merosning musulmon olimlari tomonidan qanday o‘zlashtirilganini keng tahlil qiladi.¹ Shuningdek, Frederik Kopleston o‘rta asr falsafasiga oid tadqiqotlarida islom falsafasining G‘arb tafakkuriga ta‘sirini ochib beradi.

Musulmon Sharq mutafakkirlari orasida Al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino antik falsafiy merosni chuqur o‘zlashtirib, uni yangi bosqichga olib chiqqanlar. Xususan, Forobiy Arastu falsafasini tizimlashtirib, mantiq va siyosiy falsafa sohasida muhim nazariyalar ishlab chiqqan. Ibn Sino esa metafizika va ontologiya masalalarini rivojlantirib, yangi falsafiy konsepsiyalarni ilgari surgan.

Axloqiy falsafa doirasida Ibn Miskavayh antik axloqiy qarashlarni islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib, inson kamoloti masalasini yangi darajada yoritgan. Shuningdek, Bag‘doddagi Bayt ul-Hikma faoliyati haqidagi tadqiqotlar antik merosning tarjima va tarqatilish jarayonini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu markaz orqali yunon falsafasi islom olamiga kirib kelgan va keyinchalik Yevropa ilm-faniga uzatilgan.

¹ Majid Fakhry. A History of Islamic Philosophy. – New York: Columbia University Press, 2004.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, antik va islom falsafasi o'rtasidagi intellektual uzviylik masalasi ko'p qirrali bo'lib, u tarixiy, falsafiy va metodologik yondashuvlar asosida o'rganiladi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Mazkur tadqiqot natijalari antik davr falsafasi va islom falsafasi o'rtasida chuqur va ko'p qirrali intellektual uzviylik mavjudligini ko'rsatadi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, islom falsafasi antik merosni faqat saqlab qolgan emas, balki uni ijodiy rivojlantirgan va yangi falsafiy mazmun bilan boyitgan. Avvalo, Arastu tomonidan ishlab chiqilgan mantiqiy tizim musulmon faylasuflari tomonidan keng qabul qilinib, yanada takomillashtirilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy mantiq ilmini mustaqil fan sifatida rivojlantirib, uni bilish jarayonining asosiy vositasiga aylantirgan. Bu esa ilmiy tafakkurning tizimlashuviga olib kelgan muhim omil sifatida baholanadi.² Shuningdek, metafizika sohasida ham uzviylik yaqqol namoyon bo'ladi. Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan "vojib ul-vujud" konsepsiyasi antik falsafadagi borliq haqidagi qarashlarning mantiqiy davomi sifatida shakllangan. Bu yerda antik ratsionalizm islomiy teologik qarashlar bilan uyg'unlashib, yangi falsafiy sintez yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Axloqiy falsafa doirasida Arastuning "oltin o'rtalik" tamoyili Ibn Miskavayh tomonidan qayta talqin qilinib, islomiy axloq tizimiga moslashtirilgan. Bu holat falsafiy g'oyalarning madaniy va diniy kontekstga mos ravishda transformatsiyalanishini ko'rsatadi.³ Abu Hayyon at-Tavhidiy ham yunon falsafasini sharhlash, mantiqiy masalalarni arab tilida tizimlashtirish bilan shug'ullangan. U, ayniqsa, Arastu mantiqiy ta'limotlarini sharhlagan va musulmon olimlari uchun tushunarli qilib bayon qilgan. U antik mantiqiy tizimning islom falsafasiga integratsiyasi va ilmiy metodologiyaning rivojlanishida muhim rol o'ynagan.⁴ "Islom dinining hujjati" deb nom olgan Abu Homid G'azzoliy o'zining "Tahafut al-Falasifah" (Faylasuflarga raddiya) asarida G'azzoliy yunon-rim faylasuflarini o'rganadi va ularning konsepsiyalariga jiddiy raddiyalar berib, ularning ta'limotini o'rgangan Farobiy va Ibn Sino ta'limotlarini jiddiy tanqid ostiga oladi⁵. Chunki raddiyalarning asosiy sababi shunda ediki, ularning qarashlarida islom aqidasi va e'tiqod qoidalarini himoya qilish, shuningdek, faqat ratsional asoslarda metafizik va axloqiy masalalarni hal qilish mumkin emasligini ko'rsatish bilan izohlanadi. G'azzoliy bu bilan islom falsafasi va teologiyasini chuqurlashtirib, tanqidiy tafakkur rivojiga juda katta hissa qo'shgan hisoblanadi. Ibn Rushd esa Impm G'azzoliyning fikrlariga qarahi chiqib, antik falsafiy merosni himoya qilishga

² Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 40–45-betlar.

³ Abu Ali Ibn Miskawayh. Tahdhib al-Akhlaq wa Tathir al-A'raq (Axloq takomili va ildizlar pokligi). – Tehron, 1966.

⁴ Abu Hayyon at-Tavhidiy. Sharh al-Mantiq. — Bag'dod, IX asr.

⁵ Frederick Copleston. A History of Philosophy, Vol. II: Medieval Philosophy. – London, 1993. 200–215 - pages.

sharhlashga, tizimlashtirishga va islom tafakkuri bilan uyg'unlashtirishga harakat qildi. Shu orqali u nafaqat musulmon olamida, balki Yevropa ilm-fani va falsafasida ham uzoq muddatli ta'sir qoldirishga eishdi. Shuningdek, antik G'arb ilmiy bilimlarining o'rganilishida Bag'doddagi ilmiy muhit, xususan, Bayt ul-Hikma faoliyatining muhim rol o'ynagani buni tasdiqlaydi. Bu markaz orqali antik falsafiy meros tarjima qilinib, keng ilmiy muomalaga kiritilgan va keyinchalik rivojlantirilgan.

Biroq, ayrim tadqiqotchilar islom falsafasini faqat antik falsafaning davomchisi sifatida baholashga moyil. Mazkur tadqiqot natijalari bunday yondashuvning biryoqlama ekanligini ko'rsatadi. Chunki musulmon faylasuflari antik merosni tanqidiy o'zlashtirib, uni yangi g'oyalar bilan boyitganlar. Shu bois, islom falsafasini mustaqil va ijodiy falsafiy tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, antik va islom falsafasi o'rtasidagi intellektual uzviylik bir tomonlama ta'sir emas, balki murakkab va dinamik jarayon bo'lib, u o'zaro boyish va rivojlanish orqali yuzaga kelgan. Bu jarayon keyinchalik Yevropa falsafasi taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

XULOSA (CONCLUSION)

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, antik davr falsafasi va islom falsafasi o'rtasida mustahkam va murakkab intellektual uzviylik mavjud. Antik yunon va rim olimlarining g'oyalari, xususan Arastu, Platon va Sokratning qarashlari, islom faylasuflari tomonidan o'rganilib, tanqidiy ravishda qayta talqin qilingan va rivojlantirilgan. Islom faylasuflari, jumladan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Miskavayh, Abu Hayyon at-Tavhidiy, Abu Hamid G'azzoliy va Ibn Rushd antik merosni o'zlashtirib, uni yangi ilmiy, falsafiy va axloqiy mazmun bilan boyitgan. Ayniqsa Bayt ul-Hikma faoliyati ilmiy bilimlarni tizimli tarzda jamlash, tarjima qilish va yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, antik va islom falsafasi o'rtasidagi uzviylik nafaqat bilimlarni uzatish, balki ularni ijtimoiy, madaniy va dini kontekstga moslashtirish orqali rivojlantirish jarayoni bo'lgan. Shu yo'l bilan islom falsafasi mustaqil va ijodiy falsafiy tizim sifatida shakllangan va keyinchalik Yevropa ilm-fani va uyg'unlash davri tafakkuriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, antik meros va islom tafakkuri o'rtasidagi intellektual uzviylik — bu bir tomonlama ta'sir emas, balki muloqot, sintez va ijodiy transformatsiya jarayoni bo'lib, jahon falsafasi va ilm-fani tarixida o'ziga xos o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abu Hayyon at-Tavhidiy. Sharh al-Mantiq. – Bag'dod, IX asr.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

3. Ibn Miskavayh. Tahzib al-axloq. – Qohira: Dar al-kutub, 1966.
4. Ibn Rushd. Tahafut al-Tahafut (Falsafaning Parokanda Qilinishiga Qarshi Tanqidga Javob). – Qohira, 1180-yillar.
5. Ibn Sino. Donishnoma. – T.: Fan nashriyoti, 1983.
6. Majid Fakhry. A History of Islamic Philosophy. – New York: Columbia University Press, 2004.
7. Frederick Copleston. A History of Philosophy, Vol. II: Medieval Philosophy. – London, 1993.
8. Platon. Selected Works. – London: Oxford University Press, 2000.
9. Sokrat. Dialogues. – Athens, 1998.
10. Arastu. Nikomax Axloqi. – T.: Fan nashriyoti, 1980.
11. Bag‘dod. Bayt ul-Hikma faoliyati: Fakhry M. A History of Islamic Philosophy. – New York: Columbia University Press, 2004. – 45–60-betlar.
12. Sulaymonova, S. N. (2026). IBN MISKAVAYHNING MASHSHOIYYUNLIK YO ‘NALISHIDAGI O’RNI. *International scientific journal of Biruni*, 5(1), 56-63.
13. Sulaymonova, S. N. (2024). “TAHZIBUL AXLOQ” ASARIDAGI AXLOQIYLIK MEZONLARINING HOZIRGI DAVRDAGI KOMIL INSON G ‘OYALARI BILAN HAMOHANGLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 668-672.
14. Sulaymonova, S. N. (2024). IBN MISKAVAYHNING SHARQ FALSAFIY TAFAKKURIDAGI O ‘RNI. *XXI Asr: Fan va ta’lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования)*, 1(1), 68-75.
15. Sulaymonova, S. N. (2022). IBN MISKAVAYHNING “TARTIBUS-SAODAT” VA “MANAZILULULUM” ASARI HAQIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 684-688.
16. Nodirovna, S. S. (2024). The Views of Muslim Philosophers on the Theory of Evolution. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 30, 24-29.